

**KREDIT MABLAG'LARI HISOBIGA SOTIB OLINAYOTGAN KO'CHMAS MULK
VA/YOKI USKUNALARNI KOMPLEKS SUG'URTA QILISH BO'YICHA BOSH
KELISHUV SHARTNOMASI № 0100/8171/2501449**

(Umumiy sug'urta sohasining 8-, 9- va 14-klasslari doirasida ishlab chiqilgan)

Toshkent sh.

“31” iyul 2025 yil

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan 2022-yil “22”-noyabrdagi 049696-sonli (SF-00010) litsenziyasi asosida faoliyat yurituvchi “**Kapital Sug‘urta**” AJ (keyingi o‘rinlarda – **Sug‘urtalovchi**) nomidan ustav asosida harakat qiluvchi Bosh direktor **X.A.Bo‘rrixo‘jaev** bir tomondan hamda bundan keyingi matnlarda “**Sug‘urta qildiruvchi/Naf oluvchi**” deb yuritiluvchi “**Biznesni rivojlantirish banki**” ATB nomidan 2025-yil 17-iyuldaggi 49-sonli Ishonchnoma asosida harakat qiluvchi bank Kredit bosh direktori **B.K.Mullajanov** ikkinchi tomonidan, birgalikda “Tomonlar” va alohida “Tomon” deb yuritiluvchilar, mazkur kreditning qaytmaslik xatarini sug‘urtalash bo‘yicha Bosh sug‘urta shartnomasi (keyingi o‘rinlarda – sug‘urta shartnomasi)ni quyidagilar haqida tuzdilar.

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur “Kredit mablag‘lari hisobiga sotib olinayotgan ko‘chmas mulk va/yoki uskunalarini kompleks sug‘urta qilish bo‘yicha Bosh kelishuv shartnomasi” (bundan keyingi matnlarda – “sug‘urta shartnomasi”) O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik normalariga asosan “**Kapital Sug‘urta**” AJ (bundan keyingi matnlarda – “Sug‘urtalovchi”) tomonidan ishlab chiqilgan va “**Biznesni rivojlantirish banki**” ATB bilan kelishilgan bo‘lib, ko‘chmas mulk va/yoki uskunalarini sotib olish bo‘yicha ajratilgan kreditlarning qaytmaslik xatarini va mazkur kredit hisobiga sotib olingan ko‘chmas mulk va/yoki uskunalar Qarzdor (Qarz oluvchi) tomonidan kreditning ta’minoti sifatida garovga qo‘yligandan so‘ng sug‘urta qilish tartibi va shartlarini belgilaydi.

1.2. Sug‘urta mukofoti ushbu sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan miqdorda va muddatlarda to‘lanishi sharti bilan Sug‘urtalovchi ushbu sug‘urta shartnomasi va uning ajralmas qismi bo‘lgan ilovada keltirilgan shartlarga muvofiq, sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda, Naf oluvchi va/yoki Qarz oluvchiga (Naf oluvchining tanloviga ko‘ra) sug‘urta polisida kelishilgan sug‘urta summasi doirasida sug‘urta qoplamasini (tovoni)ni to‘lab berish majburiyatini oladi.

1.3. Sug‘urtalovchi tomonidan Qarz oluvchi va Naf oluvchiga mazkur sug‘urta shartnomasi bo‘yicha umumiy sug‘urta sohasining 8-, 9- va 14-klasslari doirasida sug‘urta himoyasi taqdim etiladi.

1.4. Mazkur sug‘urta shartnomasining **3.1**-bandi bo‘yicha Sug‘urta qildiruvchi – “**Biznesni rivojlantirish banki**” ATB va **3.2**-bandi bo‘yicha esa Qarzdor – Sug‘urta qildiruvchi deb e’tirof etiladi.

1.5. Mazkur sug‘urta shartnomasi bo‘yicha Naf oluvchi – “**Biznesni rivojlantirish banki**” ATB hisoblanadi.

II. UMUMIY ATAMALAR

Sug‘urtalovchi – umumiy sug‘urta sohasining tegishli klasslari bo‘yicha sug‘urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan va mazkur sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta tovoni to‘lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat taskiloti va uning nomidan faoliyat yurituvchi filiallari.

Sug‘urta qildiruvchi – Sug‘urtalovchi bilan aniq sug‘urta munosabatlariga kiruvchi, o‘zining mulkiy manfaatlarini sug‘urtalayotgan shaxs bo‘lib, mazkur sug‘urta shartnomasining 3.1-bandni bo‘yicha “**Biznesni rivojlantirish banki**” ATB va 3.2-bandni bo‘yicha esa Qarzdor – Sug‘urta qildiruvchi hisoblanadi.

Naf oluvchi – mazkur sug‘urta shartnomasiga ko‘ra sug‘urta qoplamasini olish huquqiga ega bo‘lgan yuridik shaxs – “**Biznesni rivojlantirish banki**” ATB va uning nomidan faoliyat yurituvchi filiallari (*bank xizmatlari ofisi va markazlari*).

Qarz oluvchi (Qarzdor) – Naf oluvchi bilan kredit shartnomasini tuzgan va mazkur sug‘urta shartnomasiga qo‘shilgan (ariza-so‘rovnomani imzolash yoki ommaviy ofertani akseptlash orqali), sug‘urta shartnomasida kelishilgan sug‘urta mukofotini to‘lovchi shaxs (Naf oluvchining mijozlari).

Kredit shartnomasi – Naf oluvchi va Qarz oluvchi o‘rtasida tuzilgan bitim bo‘lib, uning asosida Naf oluvchi Qarz oluvchiga pul mablag‘larini kelishilgan miqdorlarda qaytarilishi, foizliligi va muddatliligi shartlarida taqdim etish, Qarz oluvchi esa olingan pul mablag‘larini to‘liq qaytarish va u

bo'yicha foizlarni to'lash majburiyatini oladi.

Ariza-so'rovnama – Qarz oluvchi tomonidan Sug'urtalovchiga integrallashtirilgan tizim orqali va/yoki mazkur sug'urta shartnomasining 1-ilovasiga muvofiq qog'oz shaklda to'ldirilgan holda taqdim etiladigan sug'urta obyekti to'g'risidagi ma'lumot. Ariza-so'rovnomada keltirilgan ma'lumotlarning to'g'rilinga Qarz oluvchi javobgar hisoblanadi.

Ommaviy oferta – sug'urta shartnomasining barcha asosiy shartlarini o'z ichiga olgan, javob qaytargan har qanday shaxs bilan ushbu taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida shartnomasi tuzishga bo'lgan xohish-irodasi haqidagi Sug'urtalovchining taklifi.

Sug'urta polisi – Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langandan keyin mazkur sug'urta shartnomasiga muvofiq beriladigan va sug'urta shartnomasi (ommaviy oferta) tuzilganligini hamda Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatlari kuchga kirganligini tasdiqlovchi hujjat.

Sug'urta summasi – sug'urta polisi, ariza-so'rovnomada va/yoki ommaviy ofertada ko'rsatilgan pul mablag'lari miqdori bo'lib, Sug'urtalovchi uning chegarasida ushbu sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta qoplamasini Naf oluvchi va/yoki Qarz oluvchiga to'laydi.

Sug'urta hodisasi – sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta muddati mobaynida haqiqatdan sodir bo'lgan voqeа bo'lib, uning sodir bo'lishi bilan Sug'urtalovchida sug'urta qoplamasini to'lash majburiyati yuzaga keladi.

Sug'urta qoplamasi (tovoni) – Sug'urtalovchi tomonidan Naf oluvchi va/yoki Qarz oluvchiga sug'urta hodisasi ro'y berishi oqibatida yetkazilgan zararni sug'urta summasi doirasida qoplab beriladigan pul mablag'lari.

Sug'urta mukofoti – mazkur sug'urta shartnomasida belgilangan tartib va muddatlarda to'lanishi shart bo'lgan sug'urta uchun to'lov. Sug'urta mukofoti Qarz oluvchi va/yoki qonunchilikda ta'qilanganmagan uchinchi shaxslar tomonidan to'lanadi.

Sug'urta muddati – sug'urta polisida ko'rsatilgan davr bo'lib, uning mobaynida sodir bo'lgan sug'urta hodisalari bo'yicha Sug'urtalovchining sug'urta qoplamasini to'lash majburiyatlari amalda bo'ladi.

Ko'chmas mulk – sug'urta joyida o'rnashgan, sug'urta polisi va ariza-so'rovnomada tavsiflangan hamda Naf oluvchining ichki me'yoriy hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan tartib doirasida garovga olinishi ta'qilanganmagan har qanday ko'chmas mulklar.

Uskuna – sug'urta joyida o'rnashgan, sug'urta polisi va ariza-so'rovnomada tavsiflangan uskunalar.

Geografik hudud (sug'urta joyi) – sug'urta polisi amalda bo'ladigan hudud. Mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha, agar boshqa shartlar kelishilmagan bo'lsa, geografik hudud bo'lib O'zbekiston Respublikasi hisoblanadi.

Sug'urta qiymati – sug'urta shartnomasini tuzish paytida tomonlarning kelishuviga ko'ra aniqlanadigan, sug'urta manfaati bilan bog'lanadigan ko'chmas mulk/uskunaning haqiqiy qiymati.

III. SUG'URTA HODISALARI

3.1. Sug'urta shartnomasining mazkur bandi bo'yicha sug'urta hodisasi bo'lib, sug'urta muddatida yuzaga kelgan, Qarz oluvchining kredit shartnomasi bo'yicha zimmasiga olgan majburiyatlarini quyidagilar natijasida bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi, ya'ni kredit to'lovlarini (asosiy qarz va hisoblangan foizlar, shu jumladan muddatidan oldin undirish belgilangan qarzdorliklar) belgilangan shartlarda va muddatlarda to'lanmaganligi hisoblanadi:

a) Kredit to'lovlarini to'lov grafigi bo'yicha 60 kundan ortiq vaqtida to'lanmaganligi (**birinchi sug'urta hodisasi**);

b) Kredit to'lovlarini to'lov grafigi bo'yicha jami 150 kun (birinchi sug'urta hodisasi – 60 kunga qo'shimcha 90 kun) dan ortiq vaqtida to'lanmaganligi (**ikkinchi sug'urta hodisasi**).

3.2. Sug'urta shartnomasining mazkur bandi bo'yicha sug'urta hodisasi bo'lib, ko'chmas mulk/uskunaning quyidagi hodisalar natijasida shikastlanishi yoki yo'qotilishi hisoblanadi:

a) Yer ko'chishi, yorilishi yoki ustki qatlaming siljishi;

b) Zilzila;

c) Portlash va/yoki yong'in;

d) Sel kelishi, qor yoki tog' jinslarining ko'chishi;

e) Yashin urishi – bu chaqmoqning ko'chmas mulkka bevosita ta'siri hisoblanadi;

- f) Toshqin – bu suv inshootlarini buzilishi yoki daryo, ko‘l va dengizlarning suv satxi ko‘tarilishi hisobidan katta maydonlarni suv bosishi;
- g) Bo‘ron – bu tezligi 1 soniyaga 15 metr tezlikdan kuchliroq bo‘lgan shamol va dovul – bu tezligi 1 soniyaga 25 metr tezlikdan kuchliroq bo‘lgan shamol;
- h) Do‘l deganda do‘lni bevosita ko‘chmas mulk/uskunaga ta’siri hisoblanadi;
- i) Yer osti suvlarining chiqishi – yer osti suvlar chiqishi hisobiga ko‘chmas mulk/uskunaga zarar yetishi;
- j) Tuproqning ko‘chishi yoki yemirilishi – bu o‘z og‘irligi ostida yerni ko‘chishi;
- k) Predmet va daraxtlarning yiqilishi oqibatida ko‘chmas mulk/uskunaga zarar yetishi;
- l) Yer usti, suv, temir yo‘l, havo transport vositalari yoki jismalarning ko‘chmas mulk/uskunaga kelib urilishi va qulashi;
- m) Suv ta’minoti, isitish, kanalizatsiya yoki yong‘inni avtomatik ravishda o‘chirish tizimlaridagi falokatlar oqibatida ko‘chmas mulk/uskunaga zarar yetishi;
- n) Buzib kirib o‘g‘irlik qilish, bosqinchilik va talonchilik – bu bevosita oyna va eshiklarni buzib kirish va ko‘chmas mulk/uskunaga zarar yetkazish;
- o) Uchinchi shaxslarning har qanday noqonuniy harakatlari oqibatida ko‘chmas mulk/uskunaga zarar yetkazish.

3.3. Sug‘urtalovchining mazkur sug‘urta shartnomasining **3.1**-bandi bo‘yicha sug‘urta qoplamasini to‘lash bilan bog‘liq majburiyati sug‘urta polisi rasmiylashtirilgan vaqtadan boshlanadi va Qarz oluvchi tomonidan kredit mablag‘lari hisobiga sotib olinayotgan ko‘chmas mulk/uskuna belgilangan tartibda mazkur kreditning ta‘minoti sifatida garovga qo‘yilgan vaqtgacha amalda bo‘ladi.

3.4. Sug‘urtalovchining mazkur shartnomasi **3.2**-bandi bo‘yicha sug‘urta qoplamasini to‘lash bilan bog‘liq majburiyati – Qarz oluvchi tomonidan kredit mablag‘lari hisobiga sotib olinayotgan ko‘chmas mulk mazkur kreditning ta‘minoti sifatida garovga qo‘yilgan sanadan boshlab kuchga kiradi.

IV. ISTISNOLAR

4.1. Sug‘urtalovchi quyidagilar natijasida ko‘rilgan yoki yuzaga kelgan zararlar uchun majburiyatlarni o‘z zimmasiga olmaydi:

a) Agar Qarz oluvchining taqdim etgan ma‘lumotlariga ko‘ra, Sug‘urtalovchi mazkur sug‘urta shartnomasi doirasida sug‘urta polisini tuzish uchun qaror chiqargan paytdan keyin va sug‘urta polisi kuchga kirgandan so‘ng, Qarz oluvchining sug‘urta polisi rasmiylashtirish uchun noto‘g‘ri ma‘lumotlar taqdim etganligi aniqlansa va bu holat sug‘urta hodisasini keltirib chiqarishga asos bo‘lgan bo‘lsa;

b) Sug‘urtalovchini 30 (o‘ttiz) ish kuni mobaynida xabar qilmasdan kreditning oxirgi muddatini o‘zgartirilishi (ichki to‘lov grafiklarining muddatiga o‘zgartirish kiritish holatlari bundan mustasno);

c) Agar Sug‘urtalovchiga sodir bo‘lgan sug‘urta hodisasi haqida mazkur sug‘urta shartnomasida ko‘rsatib o‘tilgan muddatlarda xabar berilmagan taqdirda;

4.2. Quyidagi hodisalar natijasida ko‘chmas mulkning zararlanishi sug‘urta hodisasi hisoblanmaydi (sug‘urta qoplamasini to‘lash rad etiladi):

a) Qarz oluvchining sug‘urta hodisasi sodir bo‘lishiga qaratilgan qasddan qilgan harakatlari, fuqarolik burchini ado etish yoki hayot, sog‘liq va sha’nini himoya qilish harakatlari bundan mustasno;

b) Ko‘chmas mulkning o‘z-o‘zidan yonib ketishi, chirishi yoki boshqa tabiiy buzilishi;

c) Uchinchi shaxslarning qasddan noqonuniy harakatlari natijasida ko‘chmas mulkning bir qismini o‘g‘irlash, ko‘chmas mulk/uskunanining yo‘q qilinishi yoki shikastlanishi, agar vakolatli organlarga ariza berilmagan bo‘lsa, shuningdek, agar ushbu holat vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanmasa;

d) Tabiiy eskirish, chirish, mog‘orlash, atmosfera namligi tufayli ko‘chmas mulk/uskunaga zarar yetkazilishi, parchalanishi yoki shikastlanishi;

e) Sug‘urtalovchi majburiyatlari kuchga kirgan paytiga kelib mavjud bo‘lgan va ular haqida Qarz oluvchiga ma‘lum bo‘lgan ko‘chmas mulk/uskunaning nuqsonlari;

f) Qarz oluvchi tomonidan sug‘urtalangan ko‘chmas mulk/uskunadan foydalanish qoidalarining buzilishi natijasida yetkazilgan zarar;

g) Loyiha–smeta hujjalarda ko‘zda tutilmagan ishlarning qisman yoki to‘liq to‘xtatilishi oqibatida yuzaga keladigan zararlar;

h) Ko‘chmas mulk/uskunaga rasmiy biriktirilmagan shaxslar tomonidan ko‘chmas mulk/uskunadan foydalanish va unga xizmat ko‘rsatishda ko‘rilgan zararlar;

i) Yonilg‘i-moylash materiallari, kimyoviy moddalar, sovutish suyuqliklari va boshqa yordamchi materiallар yo‘qolishi yoki shikastlanishi tufayli ko‘rilgan zararlar;

- j) Qurilish texnikasi, maxsus texnikalar va transport vositalarining tashqi omillar sabab bo‘lмаган ichki buzilishlari natijasida ko‘rilgan zararlar;
- k) Sug‘urta hodisasi paytida ko‘chmas mulk/uskunananing qismlarini o‘g‘irlashdan ko‘rilgan zararlar;
- l) Loyiha-smeta hujjatlarida ko‘zda tutilmagan tajriba yoki tadqiqotchilik ishlari natijasida yetkazilgan zararlar;
- m) Yadro portlashi, radiatsiya yoki radioaktiv zaharlanish ta‘sirida ko‘rilgan zararlar;
- n) Harbiy harakatlар, manyovrlar yoki boshqa harbiy tadbirlardan ko‘rilgan zararlar;
- o) Ko‘chmas mulk/uskuna davlat organlarining farmoyishi bilan olib qo‘yilishi, musodara qilinishi, rekvizitsiya qilinishi, xatlanishi yoki yo‘q qilib tashlanishi oqibatida ko‘rilgan zarar uchun Sug‘urtalovchi sug‘urta tovonini to‘lashdan ozod qilinadi.

V. SUG‘URTA SUMMASI VA JAVOBGARLIK CHEGARASI

- 5.1.** Mazkur sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta summasi – Qarz oluvchi va Naf oluvchi o‘rtasida tuzilgan kredit shartnomasiga muvofiq ajratiladigan kreditning **125** foizidan kam bo‘lmasligi lozim.
- 5.2.** Sug‘urta summasi har bir kredit shartnomasi bo‘yicha alohida belgilanib, sug‘urta polisida ko‘rsatib o‘tiladi va Sug‘urtalovchi mazkur sug‘urta summasi doirasida sug‘urta qoplamasini to‘lash majburiyatini oladi.

VI. SUG‘URTA MUKOFOTINI HISOBBLASH VA TO‘LASH TARTIBI

- 6.1.** Sug‘urta mukofoti kredit shartnomasining muddati va sug‘urta summasidan kelib chiqib quyidagicha belginadi:
- a) Ko‘chmas mulklar bo‘yicha har bir yil uchun yillik **0,06** foiz;
 - b) Uskunalar bo‘yicha har bir yil uchun yillik **0,05** foiz.
- 6.2.** Sug‘urta mukofoti Qarz oluvchi tomonidan sug‘urta shartnomasiga qo‘shilish bo‘yicha ariza-so‘rovnama imzolangan yoki ommaviy oferta tasdiqlangan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida kredit shartnomasining muddatiga mos ravishda to‘liq to‘lanadi.
- 6.3.** Qarz oluvchi tomonidan sug‘urta mukofoti to‘lanishi mazkur sug‘urta shartnomasi (sug‘urta polisi) shartlariga to‘liq va so‘zsiz qo‘shilganligini (akseptlaganini) bildiradi.
- 6.4.** Sug‘urtalovchi to‘langan sug‘urta mukofotini Qarz oluvchining yozma arizasiga ko‘ra, Naf oluvchining roziligi bilan (xat yoki onlayn tartibda yuborilgan API so‘roviga asosan) 15 (o‘n besh) ish kuni ichida quyidagi tartibda Qarz oluvchiga qaytarib beradi:
- Kredit shartnomasi bo‘yicha kredit mablag‘lari ajratilmasa to‘langan sug‘urta mukofoti to‘liq qaytariladi;
 - Qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi bo‘yicha ajratilgan kredit mablag‘lari muddatidan avval so‘ndirilganda, sug‘urta mukofotining mazkur so‘ndirilgan muddatgacha (yozma murojat qilingan kungacha) tegishli qismini chegirib tashlagan holda qaytariladi.

VII. SUG‘URTA POLISINI BERISH TARTIBI

- 7.1.** Sug‘urta polisi mazkur sug‘urta shartnomasi doirasida har bir Qarz oluvchi bo‘yicha anketa-so‘rovnama imzolangan va/yoki ommaviy oferta akseptlangandan so‘ng, individual ko‘rinishda rasmiylashtiriladi.
- 7.2.** Sug‘urta polisi mazkur sug‘urta shartnomasi (ommaviy oferta)da belgilangan tartibda va muddatda Sug‘urtalovchining bankdagi hisobraqamiga sug‘urta mukofoti (pul mablag‘lari) kelib tushgandan so‘ng 1 (bir) ish kuni ichida taqdim etiladi.
- 7.3.** Sug‘urta polisi (E-polis) Sug‘urtalovchining rasmiy veb-sayti, ilovalari va avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali elektron ravishda taqdim etiladi.
- 7.4.** Mazkur sug‘urta shartnomasining amal qilish davrida Sug‘urtalovchining sug‘urta xizmatini ko‘rsatish darajasi Naf oluvchining ichki me’yoriy hujjatlarida ko‘rsatilgan talablarga muvofiq kelmasa, Naf oluvchi yangi polis qabul qilishni bir tomonlama to‘xtatishga haqli.
- 7.5.** Qarz oluvchi tomonidan ariza-so‘rovnama imzolagan yoki ommaviy oferta akseptlangan kundan boshlab mazkur sug‘urta shartnomasiga qo‘shilgan hisoblanadi va sug‘urta shartnomasining tarafi, ya‘ni
- 3.1-bandi bo‘yicha – “Qarzdor”, 3.2-bandи bo‘yicha esa – “Sug‘urta qildiruvchi” sifatida ishtiroy etadi.
- 7.6.** Qarz oluvchi tomonidan ommaviy ofertani akseptlash quyidagilar hisoblanadi:

- Sug‘urta shartnomasi shartlarini boricha va to‘liqligicha qabul qilish;
- Mazkur sug‘urta shartnomasining 6.1 va 6.2-bandlariga muvofiq sug‘urta mukofotini to‘lash;
- Ommaviy oferta va uning shartlari Fuqarolik kodeksining 367-, 369-, 370-moddalariga asosan ishlab chiqilgan.

VIII. SUG‘URTA SHARTNOMASINING KUCHGA KIRISHI VA UNING AMAL QILISH MUDDATI. SUG‘URTA SHARTNOMASINI TUGATISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

- 8.1.** Mazkur sug‘urta shartnomasi tomonlar imzolanganidan so‘ng kuchga kiradi va tomonlar/taraflar o‘z majburiyatlarini to‘liq bajarilguniga qadar amalda bo‘ladi.
- 8.2.** Sug‘urtalovchining sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda sug‘urta qoplamasini to‘lash majburiyati Sug‘urtalovchiga sug‘urta mukofoti to‘langan sanadan boshlab kuchga kiradi.
- 8.3.** Sug‘urta shartnomasining amal qilishi quyidagi hollarda bir tomonlama to‘xtatiladi:
- amal qilish muddati tugaganda;
 - Sug‘urtalovchi Qarz oluvchi va Naf oluvchi oldidagi majburiyatlarini to‘liq bajarganda;
 - Sug‘urtalovchi tomonidan mazkur sug‘urta shartnomasi va Naf oluvchi bilan avval tuzilgan boshqa sug‘urta shartnomalari bo‘yicha Naf oluvchi oldidagi sug‘urta tovonini to‘lash bilan bog‘liq majburiyatlar belgilangan muddatdan 1 (bir) oyga kechiktirilsa;
 - Qarz oluvchi tomonidan ariza-so‘rovnama imzonlangan va/yoki ommaviy oferta akseptlangandan so‘ng sug‘urta mukofoti Sug‘urtalovchining bank hisobvarag‘iga ushbu sug‘urta shartnomasida kelishilgan to‘lov sanasidan keyin 3 (uch) bank kuni ichida to‘lanmasa;
 - O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

IX. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

9.1. Qarz oluvchining huquqlari:

- Sug‘urta muddati mobaynida sug‘urta masalalari bo‘yicha Sug‘urtalovchidan maslahatlar olish;
- Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda Sug‘urtalovchidan sug‘urta qoplamasini talab qilish;
- Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda mustaqil tekshiruv o‘tkazilishini talab qilish;
- Qo‘sishma kelishuv tuzish yo‘li bilan Sug‘urtalovchi bilan kelishgan holda sug‘urta shartnomasiga o‘zgartirish va/yoki qo‘sishchalar kiritish;
- Sug‘urtalovchi xabardor qilinishi sharti bilan shartnomani bekor qilishi;
- Mazkur sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta mukofotini qaytarib olish.

9.2. Qarz oluvchining majburiyatları:

- Zararni kamaytirish va sug‘urtalangan obyektni saqlab qolish uchun barcha amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan, shu jumladan Sug‘urtalovchi tomonidan tavsiya etilgan choralarini ko‘rish;
- Sug‘urta hodisasi ro‘y bergandan so‘ng, bu haqda zudlik bilan maxsus vakolatli organlarga ma’lum qilish va 5 (besh) ish kuni ichida har qanday maqbul yo‘l bilan (telefon, faks orqali) Sug‘urtalovchiga xabar berish;
- Hodisa tafsilotlari va zarar miqdorini aniqlash uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlarni taqdim etish va tanishishga imkon yaratish;
- Sug‘urta qoplamasini olish talabi bilan murojaat qilganda Sug‘urtalovchiga zarar sababi va miqdorini tasdiqlovchi barcha zarur hujjatlarni taqdim etish;
- Sug‘urtalovchi tomonidan aybdor shaxslarga nisbatan talab qilish huquqining amalga oshirilishi uchun sug‘urta hodisasinga oid barcha hujjatlarni berish va undirish bo‘yicha lozim bo‘lgan choralarini ko‘rish;
- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar.

9.3. Naf oluvchining huquqlari:

- Mazkur sug‘urta shartnomasi amalda bo‘lgan muddat mobaynida Sug‘urtalovchidan sug‘urta masalalari yuzasidan bepul maslahatlar olish;
- Sug‘urtalovchi bilan kelishilgan holda ushbu sug‘urta shartnomasiga qo‘sishchalar va/yoki o‘zgartirishlar kiritish;
- Sug‘urtalovchidan sug‘urta hodisasi yuz berganda, ushbu sug‘urta shartnomasida belgilangan tartibda sug‘urta tovonini talab qilish;
- Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha Sug‘urtalovchidan o‘z majburiyatlarini bajarilishini talab qilish;
- Sug‘urtalovchi tomonidan mazkur sug‘urta shartnomasi va avval tuzilgan boshqa shartnomalar bo‘yicha Naf oluvchi oldidagi sug‘urta tovonini to‘lash bilan bog‘liq majburiyatlar belgilangan

muddatdan 1 (bir) oyga kechiktirilsa, yangi sug‘urta polisi qabul qilishni bir tomonlama to‘xtatish va mazkur sug‘urta shartnomasini bekor qilish;

f) Mazkur sug‘urta shartnomasining amal qilish davrida Sug‘urtalovchining sug‘urta xizmatini ko‘rsatish darajasi Naf oluvchining ichki me’oriy hujjatlarida ko‘rsatilgan talablarga muvofiq kelmasa, yangi polis qabul qilishni bir tomonlama to‘xtatish;

g) Sug‘urtalovchining veb-saytida e‘lon qilingan to‘lovga qobiliyatlilik normativlari bo‘yicha talablar bajarilmayotganligi aniqlansa, yangi sug‘urta polisini qabul qilishni bir tomonlama to‘xtatish;

h) Ushbu sug‘urta shartnomasi amalda bo‘lgan muddat mobaynida Sug‘urtalovchiga mazkur sug‘urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish haqida murojaat etish.

9.4. Naf oluvchining majburiyatları:

i) Sug‘urtalovchining so‘roviga ko‘ra, sodir bo‘lgan hodisani o‘rganish uchun zarur bo‘lgan Qarz oluvchiga tegishli bankda mavjud barcha ma’lumotlar va hujjatlarni taqdim etish;

j) Sug‘urta mukofotini sug‘urta shartnomasida belgilangan miqdorda va tartiblarda to‘lanishini ta‘minlash;

k) Sug‘urtalovchi tomonidan aybdor shaxslarga nisbatan talab qilish huquqining amalga oshirilishi uchun sug‘urta hodisasiga oid bankdagi mavjud barcha hujjatlarni berish;

l) Sug‘urta tovoni to‘langanligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani Qarz oluvchi va/yoki Sug‘urtalovchiga ularning so‘roviga ko‘ra taqdim etish;

m) Sug‘urtalovchiga kredit shartnomasining oxirgi muddati uzaytirilishi to‘g‘risida 30 (o‘ttiz) ish kuni ichida xabar berish;

9.5. Sug‘urtalovchining huquqlari:

a) Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotni va sug‘urta obyektining berilgan tavsifga muvofiqligini, shuningdek, mazkur sug‘urta shartnomasi shartlariga amal qilinishi (rioya qilinishi)ni nazorat qilish;

b) Sug‘urtalangan obyekt (ko‘chmas mulk/uskuna)ning holati (ahvoli)ni tekshirish (monitoring);

c) Mustaqil ravishda sug‘urta hodisasi sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash;

d) Qarz oluvchidan sug‘urta hodisasi yuz bergenlik faktini yoki to‘lanishi lozim bo‘lgan sug‘urta qoplamasini miqdorini aniqlash uchun zarur bo‘lgan axborotni olish;

e) Zarur bo‘lganda, maxsus vakolatli organlarga sug‘urta hodisasi yuz bergenlik faktini va sabablarini tasdiqlovchi hujjatlarni va ma’lumotlarni taqdim etish haqida so‘rovnama yuborish;

f) Shikastlangan ko‘chmas mulk/uskunani ta‘mirlashdan oldin Sug‘urtalovchiga ko‘zdan kechirish uchun berilmaganda, shuningdek ushbu sug‘urta shartnomasida ko‘zda tutilgan majburiyatlar bajarilishi bo‘yicha Qarz oluvchi va/yoki Naf oluvchini ogohlantirish;

9.6. Sug‘urtalovchining majburiyatlari:

a) Qarz oluvchini sug‘urta shartlari bilan tanishtirish;

b) Qarz oluvchiga sug‘urta polisini sug‘urta shartnomasida kelishilgan sug‘urta mukofoti to‘langandan keyin 1 (bir) ish kuni ichida taqdim etish;

c) Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda Qarz oluvchi va/yoki Naf oluvchiga ushbu sug‘urta shartnomasi bilan belgilangan tartib va muddatda sug‘urta qoplamasini bo‘yicha to‘lovi amalga oshirish;

d) Qarz oluvchi va/yoki Naf oluvchini sug‘urta qoplamasining to‘lovi rad etilganligi to‘g‘risida 5 (besh) ish kuni ichida yozma shaklda xabardor qilish;

e) Sug‘urta shartnomasi amalda bo‘lgan davrda Qarz oluvchi va/yoki Naf oluvchidan olingan axborotning maxfiyligini ta‘minlash, Sug‘urtalovchi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq davlat idoralariga axborot taqdim etishi shart bo‘lgan holatlar yoki axborotni oshkor qilish uchun uning egasidan yozma ruxsat olingan holatlar bundan mustasno.

X. SUG‘URTA SUMMASI (QOPLAMASI, TOVONI)NI TO‘LASH TARTIBI

10.1. Sug‘urta tovoni Sug‘urtalovchi tomonidan mazkur sug‘urta shartnomasi **3.1-bandining “a”** kichik bandi (**birinchi sug‘urta hodisasi**) bo‘yicha kreditning muddati o‘tgan asosiy qarzi va barcha foizlarini, **3.1-bandining “b”** kichik bandi (**ikkinchi sug‘urta hodisasi**) bo‘yicha barcha kredit qarzdorligi (muddati o‘tgan/o‘tmagan asosiy qarzi va asosiy qarzga hisoblangan barcha foizlar)ni Naf oluvchiga to‘lab beriladi.

Bunda, Sug‘urtalovchi tomonidan Qarz oluvchining kredit qarzdorligi qoplanishi bo‘yicha undiruvni kredit shartnomasiga muvofiq ta‘minot sifatida qabul qilingan garov sifatidagi mol-mulkлага, uchinchi shaxslar taqdim etgan kafillik va kafolatlariga qaratilgan yoki qaratmaganligidan qat‘iy nazar Naf oluvchiga sug‘urta tovoni to‘lab beradi.

10.2. Sug‘urta tovoni Sug‘urtalovchi tomonidan mazkur sug‘urta shartnomasining **3.2-bandida** ko‘rsatib o‘tilgan sug‘urta hodisalari sodir bo‘lganda, Naf oluvchi yoki Qarz oluvchiga (Naf oluvchining tanloviga ko‘ra) quyidagi tartibda va miqdorda to‘lab beriladi:

- Ko‘chmas mulk/uskuna to‘la yakson bo‘lishida – uning sug‘urta shartnomasi tuzilish kuniga bo‘lgan sug‘urta summasining miqdorida;

- Ko‘chmas mulk/uskuna qisman shikastlanishida – tiklash xarajatlari miqdorida, lekin sug‘urta summasidan oshmagan holda.

Tiklash xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- ta‘mirlash (qurilish) uchun materiallar va ehtiyoj qismlar;

- ta‘mirlash bo‘yicha ishlarni to‘lab berish xarajatlari;

- materiallarni/extiyot qismlarni ta‘mirlash, joyiga yetkazib berish hamda sug‘urtalangan ko‘chmas mulk/uskunani avvalgi holatigacha tiklash uchun boshqa zarur xarajatlar;

- zarar miqdorini aniqlash maqsadida mustaqil tekshiruv o‘tkazilishi bilan bog‘liq xarajatlar.

Tiklash xarajatlariga quyidagilar kirmaydi:

- vaqtinchalik yoki qo‘shimcha ta‘mirlash bilan bog‘liq xarajatlar;

- sug‘urtalangan ko‘chmas mulk/uskunani o‘zgartirish, takomillashtirish va/yoki yangilash bilan bog‘liq xarajatlar;

- Pudratchining boshqa xarajatlari;

- boshqa ortiqcha qilingan xarajatlar.

10.3. Sug‘urta shartnomasining **3.1-bandida** ko‘rsatib o‘tilgan sug‘urta hodisasi yuzaga kelganda, Naf oluvchi 10 (o‘n) ish kuni ichida Sug‘urtalovchiga sug‘urta tovonini to‘lab berishi bo‘yicha elektron ravishda ariza (talabnama) yuboradi.

Mazkur arizada Qarz oluvchi (-lar) va kredit qarzdorligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi va quyidagi hujjalarning nusxasi ilova qilinadi:

- Anketa-so‘rovnoma;

- Sug‘urta polisi;

- Kredit shartnomasi va to‘lov grafigi;

- Qarz oluvchi jismoniy shaxs bo‘lganda – shaxsini tasdiqlovchi hujjat (Pasport, ID kartasi va boshqalar), tadbirkorlik subyekti (YATT va/yoki yuridik shaxs) bo‘lganda – guvohnoma, rahbar va ta’sischilarning pasporti;

- Kredit qarzdorligini undirish yuzasidan ogohlantirish xatlari va to‘lov kvitansiyasi (*mazkur hujjat faqatgina ikkinchi sug‘urta hodisasi bo‘yicha ilova qilinadi*).

Naf oluvchi tomonidan ariza (talabnama)ga qo‘shimcha ravishda Qarz oluvchiga tegishli bankda mavjud bo‘lgan boshqa hujjalalar ham ilova qilinishi mumkin.

10.4. Sug‘urta shartnomasining **3.2-bandida** ko‘rsatib o‘tilgan sug‘urta hodisasi yuzaga kelganda, Qarz oluvchi bu haqda zudlik bilan maxsus vakolatli organlarga ma’lum qiladi va 5 (besh) ish kuni ichida har qanday maqbul yo‘l bilan (telefon, faks orqali) Sug‘urtalovchiga xabar beradi.

Qarz oluvchi sug‘urta tovonini to‘lab berilishi bo‘yicha Sug‘urtalovchiga ariza beradi va quyidagi hujjalarni ilova qiladi:

- Sug‘urta polisi;

- Baholovchi tashkilotning ko‘chmas mulk/uskunaga etkazilgan zarar miqdori to‘g‘risidagi dalolatnomasi (hisoboti);

- Sug‘urtalovchining vakillari tomonidan tuzilgan ko‘zdan kechirish dalolatnomasi;

- vakolatli organlarning hujjalari;

- Uchinchi shaxslar zarar o‘rnini qoplaganligi to‘g‘risida ma’lumotnomasi (bunday qoplama olingan taqdirda);

- Sug‘urta hodisasiga tegishli bo‘lgan boshqa hujjalalar (agar mavjud bo‘lsa).

10.5. Naf oluvchi mazkur sug‘urta shartnomasining 10.3-bandi bo‘yicha tegishli hujjalarni Sug‘urtalovchiga taqdim qilgandan so‘ng, Sug‘urtalovchi tomonidan 10 (o‘n) ish kuni ichida sug‘urta hodisasi to‘g‘risidagi dalolatnomasi tuziladi. Naf oluvchi va Sug‘urtalovchining mas’ul xodimlari tomonidan sug‘urta hodisasi to‘g‘risidagi dalolatnomasi yozma/elektron ravishda imzolangandan so‘ng, Sug‘urtalovchi

1 (bir) ish kuni ichida Naf oluvchiga sug‘urta tovoni (qoplamasini) to‘lab beradi.

10.6. Qarz oluvchi mazkur sug‘urta shartnomasining 10.2-bandi bo‘yicha tegishli hujjalarni Sug‘urtalovchiga taqdim qilgandan so‘ng, Sug‘urtalovchi tomonidan 15 (o‘n besh) ish kuni ichida

sug‘urta hodisasi to‘g‘risidagi dalolatnama tuziladi va 1 (bir) ish kuni ichida Naf oluvchi yoki Qarz oluvchiga (Naf oluvchining tanloviga asosan) sug‘urta tovoni (qoplamasasi) to‘lab beriladi.

10.7. Sug‘urta qoplamasasi to‘langan so‘ng ko‘chmas mulk bo‘yicha sug‘urta summasi to‘langan sug‘urta qoplamasasi miqdoriga kamayadi. Mazkur qoldiq miqdorida Sug‘urtalovchi keyinchalik hodisasi sodir bo‘lganda javobgarlikni olib boradi.

10.8. Agar zarar uchinchi shaxslar tomonidan qoplansa, Sug‘urtalovchi faqat sug‘urta shartlariga muvofiq to‘lanishi kerak bo‘lgan mablag‘ bilan uchinchi shaxslardan olingan mablag‘ o‘rtasidagi farjni to‘laydi.

10.9. Sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urta qoplamasasi to‘langandan so‘ng, to‘langan mablag‘ chegarasida zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi Sug‘urta qildiruvchidan Sug‘urtalovchiga o‘tadi. Bu huquq qasddan zarar yetkazilgan hollardan boshqa holatlarda haydovchiga nisbatan qo‘llanilmaydi.

10.10. Qarz oluvchi va/yoki Naf oluvchi Sug‘urtalovchi unga o‘tgan talab qilish huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan bankdagi mavjud barcha hujjatlar va dalillarni Sug‘urtalovchiga topshirishi shart.

XI. SUBROGATSIYA

11.1. Sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urta qoplamasasi to‘liq yoki qisman to‘langanda, Sug‘urtalovchiga ushbu summa doirasida Naf oluvchi/Qarz oluvchi (Sug‘urta qildiruvchi)ga yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan regress talabi huquqi o‘tadi.

11.2. Naf oluvchi va/yoki Qarz oluvchi sug‘urta hodisasi yuz berishiga aybdor shaxsga nisbatan da‘vodan yoki unga qo‘ylgan talablarni amalga oshiruvchi huquqdan voz kechsa, shuningdek, Sug‘urtalovchiga regress talablarni amalga oshirish uchun zaruriy hujjatlarni berishdan bosh tortsa, Sug‘urtalovchi sug‘urta qoplamasining ma’lum bir qismini to‘lab berishdan ozod qilinadi va ortiqcha to‘langan sug‘urta qoplamasini qaytarib berilishini talab qilishga haqlidi.

XII. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

12.1. Tomonlar o‘z zimmalariga qabul qilingan majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgardirlar.

12.2. Qarz oluvchi ushbu sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan muddatlarda sug‘urta mukofotini o‘z vaqtida to‘lash uchun javobgar.

12.3. Sug‘urta summasi (tovoni) to‘lovi muddatlariga amal qilinmagan taqdirda, Sug‘urtalovchi, Naf oluvchining talabiga muvofiq har bir kechiktirilgan kun uchun qarz miqdorining 0,1 (nol butun o‘ndan bir) foizi miqdorida, lekin to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘ning 10 (o‘n) foizidan oshmagan miqdorda penya to‘laydi.

XIII. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

13.1. Tomonlar ushbu sug‘urta shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarayotganda ularning har biri o‘z faoliyatida korrupsiyon harakatlarni to‘liq taqiqlash va har qanday shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita), shu jumladan pul mablag‘lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/berish, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni ta‘minlash, ma’muriy va boshqa tartib-qoidalarni soddallashtirish., raqobat va boshqa afzalliklarni ta‘minlashni to‘liq rad etadi. Tomonlar o‘z faoliyatida amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan siyosat va tartib (agar mavjud bo‘lsa) talablariga amal qiladilar.

13.2. Tomonlar ushbu shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish chog‘ida na o‘zları, na ijroiya organi, na ularning mansabdor shaxslari yoki xodimlari biron-bir shaxslarga (jumladan, jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari va davlat mansabdor shaxslari) korrupsiyon to‘lovlarni taqdim etishni taklif qilmasligini, taqdim etmasligini, rozilik bermasligini, shuningdek har qanday shaxsdan (to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita) har qanday korrupsiyon to‘lovlarni olishga yoki qabul qilishga rozi bo‘lmasliklarini kafolatlaydi.

13.3. Mazkur bo‘limning biron bir shartlari buzilgan taqdirda, tegishli taraf boshqa tarafni bunday buzilish sodir bo‘lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Tomonlar yozma xabarnomada ushbu bo‘limning qaysi bir qoidalari buzilganligini tasdiqlovchi ishonchli faktlar va materiallarni taqdim qilishi shart.

13.4. Yozma xabarnomalar “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tomonidan tashkil etilgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens ishonch liniyasi” kanallari (tel: 78-150-59-95, veb sayt www.brk.uz, Telegram messenger @BRB_ANTIKOR_BOT (email:antikor@brk.uz) orqali amalga oshiriladi.

13.5. Ushbu bo‘lim shartlari tomonlarning biri buzilganligi bo‘yicha fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa Tomonning qoidabuzarliklarni ko‘rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma’lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa taraf shartnomani bir taraflama qisman yoki to‘liq bekor qilishga haqli.

13.6. Mazkur sug‘urta shartnomasini korrupsiyaga qarshi shartlarga asoslanib bekor qilgan taraf, bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni talab qilishga haqli. Zararlarni qoplash taraflar tomonidan yozma ravishda tasdiqlangan dalolatnomada belgilangan muddat va miqdorda amalga oshiriladi.

XIV. BAHSLARINI HAL ETISH TARTIBI

14.1. Sug‘urta summasi (qoplamasi, tovoni) Sug‘urtalovchi tomonidan mazkur sug‘urta shartnomasining 10.1-10.2 bandlari bo‘yicha belgilangan tartibda ixtiyoriy ravishda Naf oluvchiga to‘lab berilmagan taqdirda, sug‘urta summasi (qoplamasi, tovoni) amaldagi qonunchilik talablariga asosan, tegishli sudning qarori asosida majburiy tartibda undiriladi.

14.2. Ushbu sug‘urta shartnomasidan kelib chiqadigan bahslar, kelishmovchiliklar yoki talablarni, shu jumladan uning ijrosi, buzilishi, to‘xtalishi yoki haqiqiy emasligiga taalluqli masalalarni muzokaralar orqali hal etishning imkonini bo‘lmasa, ular O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariiga muvofiq hal etiladi.

XV. BOSHQA SHARTLAR

15.1. Mazkur sug‘urta shartnomasiga qo‘shimchalar va o‘zgartirishlar kiritish tomonlarning roziligi asosida qo‘shimcha kelishuv tuzish orqali amalga oshiriladi, shartnomalariga bir tomonlama o‘zgartirish kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

15.2. Sug‘urtalovchi va Naf oluvchi ma’lumotlarni sir saqlash bo‘yicha javobgardirlar va ular ushbu sug‘urta shartnomasi, uning ilovalari va shartnomalar bilan bog‘liq boshqa hujjatlarning mazmunini tegishli tomonning dastlabki yozma roziligidan uchinchi tomonga oshkor qilishlari man etiladi.

15.3. Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha huquq va majburiyatlarni uchinchi shaxslarga topshirish tomonlarning yozma roziligidan amalga oshirishiliga yo‘l qo‘yilmaydi.

15.4. Tomonlarning yuridik manzili va bank rekvizitlari o‘zgargan taqdirda, ular bu haqda bir-birini 10 kalender kunidan kechiktirmay xabardor qilishi lozim.

15.5. Ushbu sug‘urta shartnomasi 2 (ikki) nusxada tuziladi, Sug‘urtalovchi va Naf oluvchida bitta nusxadan saqlanadi va ularning har biri teng huquqiy kuchga ega.

15.6. Tomonlarning ushbu sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilmagan o‘zaro munosabatlari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

XVI. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

“Sug‘urtalovchi” “Kapital Sug‘urta” AJ Manzil: Toshkent shahar M.Ulug‘bek tumani Maxatma Gandi ko‘chasi, 44-uy. H/r: 20216000300138037003 “Biznesni rivojlantirish banki” ATB MFO: 01037, STIR: 200638670, XTTUT:65120 Tel.: 71- 200-11-10  Bosh direktor: X.A.Bo‘rrixo‘jaev (imzo)	“Sug‘urta qildiruvchi/Naf oluvchi” “Biznesni rivojlantirish banki” ATB Manzil: Toshkent shahar, A.Navoiy ko‘chasi, 18-A uy. H/r: 29896000400001037410 “Biznesni rivojlantirish banki” ATB MFO: 01037, STIR: 206 916 313, OKED: 64190, tel.: 78-150-93-39  Kredit bosh direktori B.K.Mullajanov (imzo)
---	---

“Kapital Sug‘urta” AJ
va “Biznesni rivojlantirish banki” ATB o‘rtasida
2025-yil _____ da tuzilgan
Bosh kelishuv shartnomasiga
1-ilova

“Kapital Sug‘urta” AJ
Bosh direktori X.A.Bo‘rrixo‘jaevga
Qarz oluvchi

dan

ARIZA-SO‘ROVNOMA

Ushbu Anketa-so‘rovnoma bilan, Sizdan quyidagi ma’lumotlar asosida sug‘urta shartnomasini/polisini tuzishingizni so‘rayman.

1.	Qarz oluvchi:	
2.	Qarz oluvichning manzili va ma’lumotlari: Manzili: Shaxsiy _____ ma’lumotlar: Telefon _____ raqami: _____	
	Ko‘chmas mulk/uskunani sotib olish bo‘yicha shartnoma: “___” ____ 20____ yildagi №_____ - sonli	
4.	Kredit shartnomasi: “___” ____ 20____ yildagi №_____ - sonli	
5.	Kredit muddati: “___” ____ 20____ yildan “___” ____ 20____ gacha	
6.	Kredit miqdori: _____ (_____) so‘m 00 tiyin	
7.	Kredit qaytmasligi bo‘yicha sug‘urta summasi: _____ (_____) so‘m 00 tiyin	
8.	Ko‘chmas mulk/uskunaga yetkazilgan mulkiy zararlar bo‘yicha sug‘urta summasi: _____ (_____) so‘m 00 tiyin <small>(Ko‘chmas mulk/uskunani bank tomonidan qabul qilinadigan qiymati miqdorida)</small>	
8.1.	Ko‘chmas mulk/uskunaning sug‘urta qiymati: _____ (_____) so‘m 00 tiyin	
9.	Sug‘urta muddati: “___” ____ 20____ yildan “___” ____ 20____ gacha <small>(kredit shartnomasi muddatiga mos ravishda)</small>	
9.1.	Jumladan, kredit qaytmasligi bo‘yicha sug‘urta muddati: “___” ____ 20____ yildan “___” ____ 20____ gacha	
9.2.	Jumladan, ko‘chmas mulk/uskunaga yetkazilgan mulkiy zararlar bo‘yicha sug‘urta muddati: “___” ____ 20____ yildan “___” ____ 20____ gacha <small>(kredit shartnomasi muddatiga mos ravishda)</small>	

Sug‘urta shartnomasi bilan tanishdim va nusxasini oldim.

Sug‘urta shartnomasining shartlariga roziman, ularni bajarish majburiyatini olaman hamda ushbu sug‘urta shartnomasi doirasida shartnomaviy munosabatga kirishaman. Shuningdek, taqdim etilayotgan ma’lumotlarning haqqoniyligini tasdiqlayman.

Berildi:

Qarz oluvchi nomidan: _____ “___” ____ 20____ yil.